

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
O'ZBEKİSTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**



«TASDIQLAYMAN»

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

B.Kulmatov

2023

**Bakalavriat ta'lif yo'nalishi talabalarining  
pedagogik amaliyot dasturi  
(kundzi va kechki ta'lif)**

Ta'lif sohasi:

110000 – Pedagogika

100000 – Gumanitar fanlar

Ta'lif yo'nalishi:

5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)

Toshkent – 2023

**Tuzuvchilar:** Paluanova X.D.  
Azizova F.S.  
Daliyeva M

**Taqrizechilar:** O'zDJTU p.f.d., professor N.Isakulova  
O'zDJTU p.f.n., dotsent K.Karaeva

O'zDJTU Ingliz tili  
1-fakulteti dekani:  
2023 yil "28" avgust A.Yuldashev



## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimida yangidan-yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni soha xodimlari oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo‘ydi. Vazifalar orasida eng muhimlaridan biri zamon talablariga javob bera oladigan pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat. Bu borada bo‘lajak mutaxassislarning pedagogik amaliyoti keng imkoniyatlarga ega. Pedagogik amaliyot maqsadi talabaning malaka va ixtisoslik fanlaridan egallagan bilimlarni amalda qo‘llay bilish, bo‘lg‘usi mutaxassisni ta’lim muassasalarida amaliy faoliyatga tayyorlashdan iborat.

Pedagogik amaliyot davrida talaba o‘qituvchi sifatida dars faoliyati jarayonida faol ishtirok etadi, tarbiyaviy ishlar bilan shug‘ullanadi va kelajak ixtisosiga doir o‘zini qiziqtirayotgan ko‘pgina savollarga javob topa oladi. Amaliyotni o‘tash jarayonida talabalarning pedagogik malaka va ko‘nikmalar intensiv tarzda shakllanadi, ijodiy mustaqilligi rivojlanadi, pedagogik tafakkuri tarkib topadi.

### **Pedagogik amaliyot maqsadi va vazifalari**

Pedagogik amaliyot jarayonida amaliy ko‘nikmalarni egallash. Talabalarga, bo‘lajak o‘qituvchilarga bog‘cha, maktab, akademik litsey va kollej ta’lim tizimini o‘rganishda yordam berish, muammolarga ijodiy yondashishni o‘rganish, o‘quv muassasalarini pedagogik va metodik faoliyati bilan tanishtirishdan iborat.

Talabalarga asosiy fanlarni dars bera olish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish. O‘quv muassasalarida pedagogik jarayonni printsiplari, shakllari va metodlarini tashkil qilishda nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam berish. O‘quvchilarni bilim, malaka va ko‘nikmalarini nazorat qilish va baholashni o‘rgatish. O‘quv muassasalarida o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablarni tushuntirishdan iborat.

Uslubiy tayyorgarlikning sharti amaliyotchi talabaning dars o‘tish texnikasini, tarbiyaviy, amaliy va rivojlantiruvchi kabi umumiylarini maqsadlarni aniqlashtirishni, uslubiy masalalarini oldiga qo‘yish va ularning yechimini topishni, extimol bo‘lgan qiyinchiliklarni oldindan aytalish va ularni yechishni, fanlararo aloqalarini xisobga olish va o‘quvchilarning ishlashga bo‘lgan tayyorligining dastlabki darajasini belgilashni, teskari aloqaning mazmunini tushunishini, o‘quvchining o‘zlashtirishiga ko‘ra uy vazifalari xajmini o‘zgartirish va xilma-xil qilishni bilishdan iborat.

Pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik xolatlarda yo‘l topa olishni, darslarda va darslardan tashqari ishlarda o‘quv va tarbiya masalalarining yechim natijalarini tanqidiy baholashni o‘rganishi zarur. Bunda birinchi xolatda, maqsad bilim, qobiliyat va ilmni o‘rganish bo‘yicha o‘quv masalalarining yechimi, ikkinchi xolatda esa - dunyoqarash, xulq-atvor sabablarini shakllanishi bo‘lishi kerak.

Bitiruv kursi talabalarining pedagogik amaliyoti ularning oliy o‘quv yurtidagi professional tayyorgarligining yakuniy bosqichidir.

Bu amaliyotning xususiyati shundan iboratki, u kelajakdagi professional faoliyatning real sharoitlariga maksimal darajada yaqin bo'lgan sharoitda o'tkaziladi. Uning maqsadi - talabalarni chet tillari o'qituvchisi va sinf rahbari vazifasini bajarishga tayyorlash. Shuning uchun aynan ushbu amaliyot jarayonida talabalar o'quvchilarni tarbiyalashda, o'quv va tarbiya jarayonlarining organik birligini amalgalashda, ulg'ayotgan avlodning aqliy, xulqiy, mexnat, jismoniylar va estetik birligini ta'minlashda kompleks yondashishga o'rganadilar.

Pedagogik amaliyoti oliy o'quv yurtida avvalgi nazariy va amaliy o'rganish jarayonida o'zlashtirilgan pedagogik bilimlarning kelgusi rivojlanishi, mustahkamlanishi va mukammallaشتirilishiga, hamda yangi amaliy bilim va qobiliyatlarning shakllanishiga qulay sharoit yaratadi, u bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik fikrlashining rivojlanishiga, ularning ishga nisbatan tekshiruv yondashishining shakllanishiga imkon beradi.

Pedagogik amaliyotning maqsadi - maktab hayotida uslubiyat, pedagogika, psixologiya va chet tillari bo'yicha nazariy bilimlarni, ilm va qobiliyatni amalgalash va professional qobiliyatlarni o'zlashtirish. Aynan pedagogik amaliyot paytida talabalar uslubiyat, tilshunoslik, pedagogika, psixologiyaning nazariy nizomlari va matabda mustaqil ijodiy ish o'rtaida bevosita bog'liklikni ko'radilar.

Amaliyot davomida talabalar barcha to'plangan bilimlarni, uslubiy masalalarni ijodiy yechish jarayonida o'zgartirgan xolda, ularni ishga soladilar.

#### **Pedagogik amaliyotning masalalari quyidagilar:**

- I. O'rta umumta'lim mabtableri, akademik litsey va kollejlarning umumiyligi sharoitlarini o'rganish
- II. Barcha fanlar bo'yicha, ayniqsa chet tili bo'yicha o'quv jarayonini tahlil qilish va o'rganish.
- III. Darsliklarning mavjudligi, kompyuterlashtirish darajasi va chet tili sinfining anjomlar bilan ta'minlanganligi bilan tanishish.
- IV. Fan bo'yicha dars va darsdan tashqari ishlarni rejalashtirish.
- V. Fan vositalari yordamida o'qituvchining ijobiylarini shaxsiyatini shakllantirish. O'quvchilarda ijodiy yondashishni yetishtirish.
- VI. O'quvchilarda o'rganilayotgan tilning mamlakati xaqida dunyoqarashini kengaytirish.
- VII. Tarbiyaviy va darsdan tashqari ishlarni o'tkazish.
- VIII. To'garak mashg'ulotlari, o'yinlar, safarlar, ekskursiyalar o'tkazish, o'qitishning noan'anaviy usullarini tadbiq etish, kompyuter texnologiyalari va o'qitishning texnik vositalarini qo'llash.
- IX. Chet tiliga nisbatan mehr uyg'otish.

#### **Pedagogik amaliyotining tarkibi**

4 kurs talabalarining pedagogik amaliyotining tarkibiga pedagogik va uslubiy qibiliyatlar va bilimlar kiradi. Ma'lum bo'lischicha, professional-pedagogik, uslubiy bilimlar boshqa barcha bilimlar kabi o'quvchilarda maxsus tashkillashtirilgan faoliyat jarayonida rivojlanadi.

Talabalarning pedagogik mahorat asoslarini o‘rganish jarayonini maqsadli va o‘zlashtiruvchi qilish uchun uslubiyatchi, mактабда chet tilni o‘rganish jarayonida o‘qituvchi tomonidan xar bir majburiy pedagogik bilimlarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlaydigan xususiy qobiliyat va bilimlar ro‘yxatini, yaqqol tasavvur etishi lozim.

Uslubiyatchi uchun amaliyotchi talaba 4 kursda o‘quv-tarbiya amaliyoti davomida o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan konstruktiv-rejalshtiruvechi, tashkillashtiruvchi, kommunikativ-o‘rgatuvchi, tarbiyalovchi va tekshirish, bilimlarning majburiy minimumini bilish zarur. Faqatgina mazkur pedagogik va uslubiy bilimlarni bilgan xolda amaliyot davomida ularga to‘g‘ri keladigan shakllarni va talabalarning faoliyat turlarini tanlash va tashkillashtirish mumkin.

Amaliyot davomida talaba quyidagilarni o‘rganishi kerak:

**A) Konstruktiv bilimlar:**

- darsning konkret maqsad va vazifalarini belgilash;
- o‘quv materialini vaqt bo‘yicha tanlash va taqsimlash;
- darsliklar materialini, o‘quv qo‘llanmalarini ijodiy ishlatish;
- dars va dars sistemasini rejalshtirish;
- til bo‘yicha darsdan tanqari mashg‘ulotlarni rejalshtirish;
- o‘quv jarayoni uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatmali qo‘llanmalarni tuzish va rasmiylashtirish;
- o‘quv materialining murakkabligini xisobga olgan xolda mashg‘ulotlarning turlarini aniqlash;

**B) Tashkiliy qobiliyatlar:**

- darsda mo‘ljallangan rejaning bajarilishini tashkillashtirish;
- o‘quvchilarning kommunikativ-o‘quv faoliyatini tashkillashtirish;
- ishning frontal, guruhli va individual shakllarini ratsional tarzda uyg‘unlashtirish;
- o‘quvchilarning til ustidagi mustaqil ishlarining eng ratsional usullarini o‘rgatish;
- ko‘rsatmali va texnik vositalarni ratsional tarzda ishlatish;
- chet tillari bo‘yicha darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkillashtirish;
- darsda va darsdan tashqarida konkursli va til o‘yinlarini olib borish.

**V) Kommunikativ-o‘quv qobiliyatlar:**

- o‘qituvchi-sinf, o‘qituvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-sinf, o‘quvchi-o‘quvchi bo‘lmish kerakli aloqalarni til vositasida yaratish va davom ettirish;
- nutq tajribasini ishlatish, uni o‘quvchilarning nutq imkoniyati darajasi va umumiy rivojlanishiga nisbatan o‘zlashtirish;
- o‘q  
o‘quvchilarning nutq faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida rejalshtirilgan o‘quv-nutq holatini ishlatish;
- o‘quvchilarning hisob ob‘ektlari va nutq faoliyatini nazoratini belgilash;

- o‘quvchilarning nutqida xatolar xususiyatini belgilash va ularning sababini aniqlash;
- ularning ogohlantirish va to‘g‘rilash yo‘llarini belgilash;
- o‘quvchilarning tilga nisbatan ishtiyoqini shakllantirish uchun darsdan tashqari turli mashg‘ulot shakllarini ishlatalish.

**G) Tarbiyaviy qobiliyatlar:**

- o‘quvchilarning estetik tarbiyasini amalga oshirish;
- vatanparvarlik xissiyotini tarbiyalash uchun til o‘rganish jarayonini ishlatalish;
- o‘quv fani materiali vositasida o‘quvchilar shaxsiyatining aqliy va axloqiy, fuqarolik xususiyatlari (mas’uliyat, tirishqoqlik, mehnatga hurmat) yo‘llari va shakllarini topish;
- tarbiyalash jarayonida o‘rganilayotgan til vositasida badiiy tashabbusning turli shakllarini ishlatalish.

**D) Tekshirish qobiliyatlar:**

- o‘quv faoliyatidagi alohida o‘quvchilarni sinf kollektivi doirasida o‘rganish, shaxslararo munosabatlarni va tilga bo‘lgan munosabatlarni o‘quv faniga nisbatan o‘rganish;
- darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarining til materialini, uning uslubiy qiymatini, ilmiy asosliligini va uni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish jarayonidagi qiyinchiliklarni oldindan aytib berish maqsadida analiz qilish va baxolash;
- o‘z pedagogik tajribasini va boshqa o‘qituvchilar va amaliyotchi talabalarning tajribasini nazorat qilish, analiz qilish va umumlashtirish;
- pedagogik xaqiqatning faktlarini yig‘ish, sistemalash va nazariy tushunib yetish, va ularni doklad, referat yoki uslubiyat bo‘yicha bitiruv kvalifikatsion ish ko‘rinishida bayon etish.

Yuqoridagilarga qo‘srimcha ravishda quyidagi faoliyat turlari ham aniqlanadi:

- ikkinchi mutaxassislik bo‘yicha asosiy dars turlarini tayyorlash va o‘tkazish;
- o‘qituvchilarning mакtab uslubiyat birlashmalarida va mакtabning pedagogik majlisi yig‘ilishida ishtirot etish;
- mакtab ota-onalar qo‘mitasining ishida ishtirot etish;
- bitiruv kvalifikatsion ishi mavzusida pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish.

**Pedagogik amaliyotini tashkillashtirish**

Bitiruv yilida pedagogik amaliyoti talabalarning kelajak professional faoliyatiga maksimal ravishda yaqin bo‘lgan sharoitda o‘tkaziladi. Uning maqsadi talabalarni chet tili va sinf (guruh) rahbari vazifalarini bajarishga tayyorlash.

Pedagogik amaliyotini o‘tkazish asosan umumita’lim o‘rta maktablari va akademik kollej va litseylardadir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar sistemasidagi amaliyotga nazariy va amaliy tayyorlash bilan bir qatorda oliv o‘quv yurtida ularning bevosita psixologik tayyorlanishi ham zarur. Bunday tayyorgarlikning maqsadi talabalarning maktabda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkillashtirish asosiy masalalari bo‘yicha bo‘lgan nazariy bilimlarini aktuallashtirish, ularni pedagogik amaliyot tarkibi va masalalari bilan tanishtirish, ishda faol qatnashishga ko‘rsatma berish.

Pedagogik amaliyotga bevosita tayyorlanishda ko‘rsatma beruvchi konferentsiyaning ahamiyati katta. Unda talabalar amaliyotning ushbu turini tashkillashtirish, uning masalalari va tarkibi, amaliyot davomida o‘quvchilar bilan o‘quv-tarbiya ishlari dasturi (rejasi) bilan tanishtiriladi. Konferentsiyada talabalarga ularni o‘rtta ta’lim maktablariga taqsimlanishi qarori o‘qib beriladi, hamda bu o‘quv maskanlarining o‘quv-tarbiya ishini tartibini belgilovchi muhim hujjatlar bilan tanishtiriladi. Talabalar muhim psixologik-pedagogik adabiyot bilan tanishishlari uchun, til o‘rgatish pedagogika va uslubiyat xonalarida to‘garak va ko‘rgazmalar tashkil etiladi.

Bu yerda universitet (pedagogik oliy o‘quv yurtlari) talabalarining pedagogik amaliyoti bo‘yicha qo‘llanmalar, pedagogik amaliyot dasturi, uslubiy adabiyotning tavsiya etilgan ro‘yxati, uslubiy materiallar (taxminiy individual amaliyot rejalar, dars, tarbiya ishlari rejalar, dars va tarbiyalov faoliyat analizi sxemasi, va xokazolar) joylashgan. Fakultet ko‘rgazmalarida stendlar, oldingi yillar amaliyoti natijalari ayniqsa foydalni va dolzarbdir. Bu stendlarda o‘quvchi va talabalarning til o‘rgatish, tarbiya ishlari, guruh raxbar-uslubiyatchining bahosi bilan belgilangan amaliyotchilarning individual rejalar, rejalar, dasturlar va turli dars va darsdan tashqari xarakatlarning qisqa uslubiy ishlernmalari (to‘garaklar va konkurslar) bo‘yicha yozma va chizma ishlari joylashgan.

Talabalarni o‘quv-tarbiya ishini to‘g‘ri tashkillashta muktabda o‘tgan amaliyotning birinchi haftasi alohida ahamiyatga ega. Maktabdagagi birinchi kunlarda talabalar direktor, uning o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, o‘qituvchilarning uslubiy birlashmasi raisi, chet tillari o‘qituvchilari bilan uchrashishadi. Talabalar ushba muktab xususiyatlari, o‘quv dasturi sistemasi, amaliyot o‘tadigan sinflar bilan tanishtiriladilar. Muktab direktori sinflarga umumiylar xarakteristika beradi, tashkillashtiruvchi talabalarni muktabda tarbiyalov ishi rejasi va asosiy yo‘nalishlari bilan tanishtiradi, uslubiyatchi-raxbar talabalarning ushbu muktabdagagi ishining aniq tarkibini ochib beradi

Amaliyot rahbarlari talabalar oldiga aniq o‘quv va tarbiya masalalarini qo‘yadilar, talabalarga darsni, daridan tashqari va tarbiyalov faoliyatini tayyorlash va o‘tkazishda uslubiy yordam ko‘rsatadilar, amaliyotning alohida qismalari va butun dasturning bajarilishini analiz qilish va baholash maqsadida guruh va individual suhbatlar o‘tkazadilar.

Butun kurs talabalarining pedagogik amaliyoti natijalari dekanat, mutaxassislik kafedrasi tomonidan tashkil etilgan fakultetda bo‘lib o‘tadigan yakuniy kurs ilmiy-amaliyot konferentsiyasida o‘tkaziladi.

Yakuniy konferentsiyaning o‘tkazilish darajasi birinchi navbatda talabalarning har bir muktab guruhi tayyorligiga bog‘lik.

Konferentsiyalarda asosan talabalarning barcha ishlari aks ettirilgan har bir maktab guruhi xisoboti eshittiriladi.

Yakuniy ilmiy-amaliyot konferentsiyaga kichik kursdag'i talabalarni taklif etish maqsadga muvofiq. Ularni talabalar o'quv va tarbiya ishi bilan tanishtirish pedagogik faoliyatga, amaliyotga, nazariy intizomni o'rganishga sabab bo'ladi.

#### **Amaliyot uslubiyatchilar - rahbarlar maqsadlari:**

- amaliyot natijalariga qarab yakuniy konferentsiyada talabalar chiqishlarini tayyorlash. Unga ma'lum umumlashtiruvchi materialni tanlash, misollar va faktlar tanlash, chiqish tarkibini aniqlash, pedagogik amaliyot natijalari xulosalarini asoslash kiradi.
- konferentsiyalarda pedagogik amaliyot natijalarini analiz qilish va umumlashtirish bilan chiqish, barcha talabalar ishlarining ijobiy va salbiy tomonlari, talabalarning mustaqil pedagogik faoliyatiga nazariy va amaliy tayyorgarligini mukammallashtirish yo'llari va tavsiyalari bilan chiqish.

Pedagogik amaliyot natijalarini chiqarayotganda hisobot hujjatlarini analiz qilish muhim ahamiyatga ega. Amaliyotchilarning hisobot hujjatlarini analiz qilinishi uslubiyatchi-rahbarlarga ularning amaliyot davomida qilgan ishlari sifati, o'z pedagogik tajribasini tushunib yetish darajasi, ularning pedagogik ishga nisbatan aloqasi xaqida fikr yuritishga imkon beradi.

#### **Pedagogik amaliyotni tashkil etish**

Ushbu pedagogik amaliyot uzlusiz ta'limgizning maktabgacha, umumiyo'rta, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'quv jarayonidan uzilgan holatda tashkil etiladi. Talabalar 4 hafta davomida amaliyot jarayonida ishtiroy etishadi. Amaliyot davrida talabalar chet tili o'qituvchisi vazifasida ish olib boradilar. Pedagogik amaliyot metodika kafedralarida tasdiqlangan reja asosida maktabgacha ta'limgiz tashkilotlari, umumta'limgiz maktablari, akademik litseylarida o'tkaziladi.

#### **I. Tashkiliy ishlari:**

- uzlusiz ta'limgizning umumiyo'rta, o'rtalik maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlari tizimi, pedagogik jamoa bilan tanishish;
- o'quv muassasasining moddiy – texnika ta'minoti va adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi bilan tanishish;
- o'quv muassasasidagi ma'nnaviy – tarbiyaviy ish rejalarini bilan tanishish;
- chet tilida o'quv – uslubiy hujjatlar yuritilishi bilan tanishish;

#### **II. O'quv - uslubiy ishlari:**

- ixtisoslik fanlari o'qituvchilarining darslarini kuzatish va tahlil qilish;

- o‘quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish;
- sinf, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar rejasini tuzish;
- o‘quvchilar bilimlarini nazorat qilish va baholash shakllarini o‘rganish;
- o‘tkaziladigan pedagogik amaliyot kundalik daftарini muntazam to‘ldirib borish;
- dars mavzulariga oid didaktik materiallarni tayyorlash;
- mavzular bo‘yicha ilmiy, metodik adabiyotlarni o‘rganish;
- o‘quv jarayonini tashkil etishda kompyuter texnologiyasi va internet tizimidan samarali foydalanish;
- pedagogik amaliyot yuzasidan hisobot hujjatlarini tayyorlash.

### **III. Ma’naviy-tarbiyaviy ishlar:**

- o‘quv muassasasida sinf rahbarlari ishini o‘rganish, ularga yordamlashish va tadbirlar o‘tkazish;
- odob-axloq mavzusida suhbat o‘tkazish;
- o‘quv-tarbiyaviy ishlar bo‘yicha rahbar muovini faoliyatini o‘rganish va birgalikda ish yuritish.

## **IV kurs talabasining pedagogik amaliyot davomidagi faoliyatining taxminiy mazmuni**

### **1-hafta**

**O‘quv-tarbiya ishlari tizimini yaxlit o‘rganish va alohida o‘quvchi hamda sinf jamoasi xususiyatini o‘rganish:**

Pedagogik amaliyot oldi anjumanida ishtirok etish, amaliyotning maqsad va vazifalari, ish rejasи va topshiriladigan xujjatlar bilan tanishish

O‘quv muassasa bilan tanishish va o‘rganish: o‘quv muassasa direktori, o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasi, ish tartibi, xujjatlar va xokazo.

Chet tili va boshqa fanlardan darslar kuzatish va tahlil qilish.

O‘quv muassasa bilan tanishishni davom ettirish: o‘quv va tarbiyaviy ish rejalarini bilan tanishish, o‘rganish va nusha olish.

### **2-hafta**

Amaliyotni davom ettirish: chet tili va boshqa fanlardan darslarni kuzatish va tahlil qilish.

Birkirilgan sinf(guruh)larda ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejasи bilan tanishish: sinf (guruh) rahbari ish rejasи bilan tanishish.

Dars rejalarini tuzish va amaliy darslarni o‘tishga tayyorgarlik ko‘rish.

### **3- hafta**

Chet tili va boshqa fanlardan darslar kuzatish va tahlil qilish.

Ochiq darslarga tayyorgarlik ko‘rish, tarqatma materiallar tayyorlash va amaliy darslarni o‘tish.

Mavzu asosidaa ochiq darslarga tayyorgarlik ko‘rish, tarqatma materiallar tayyorlash va amaliy darslarni o‘tish.

Sinf (guruh)larda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni davom ettirish: turli mavzular yuzasidan davra suhbatlari o'tkazish.

Pedagogik amaliyat bo'yicha berilgan topshirqlar asosida hujjatlarni tartibga solish. O'quv muassasasidagi to'garaklar faoliyati bilan tanishish faol ishtirok etish.

#### **4-hafta**

Chet tili va boshqa fanlardan darslarni kuzatish va tahlil qilish. Dars rejalarini tuzish va amaliy darslarni o'tish.

Mavzu asosidaa ochiq dars o'tkazish, tarqatma materiallar tayyorlash va amaliy darslarni o'tish.

Turli mavzular yuzasidan davra suhbatlari o'tkazish.

Pedagogik amaliyotning hisobot anjumaniga guruh hisobotini tayyorlashda faol ishtirok etish.

Amaliyot yakunida topshiriladigan hujjatlar bilan ishlash.

Pedagogik amaliyot yakuniga bag'ishlangan anjumanda ishtirok etish.

### **V kurs talabasining pedagogik amaliyot davomidagi faoliyatining taxminiy mazmuni**

#### **1-hafta**

**O'quv-tarbiya ishlari tizimini yaxlit o'rganish va alohida o'quvchi hamda sinf jamoasi xususiyatini o'rganish:**

Pedagogik amaliyot oldi anjumanida ishtirok etish, amaliyotning maqsad va vazifalari, ish rejasi va topshiriladigan xujjalalar bilan tanishish

O'quv muassasa bilan tanishish va o'rganish: o'quv muassasa direktori, o'qituvchisi va o'quvchilar jamoasi, ish tartibi, xujjalalar va xokazo.

Chet tili va boshqa fanlardan darslar kuzatish va tahlil qilish.

O'quv muassasa bilan tanishishni davom ettirish: o'quv va tarbiyaviy ish rejalarini bilan tanishish, o'rganish va nusha olish.

#### **2-xafta**

Nofaol amaliyotni davom ettirish: chet tili va boshqa fanlardan darslarni kuzatish va tahlil qilish.

Biriktirilgan sinf(guruh)larda ma'naviy-ma'rifiy ishlari rejasi bilan tanishish: sinf ( guruh ) rahbari ish rejasi bilan tanishish.

Dars rejalarini tuzish va amaliy darslarni o'tishga tayyorgarlik ko'rish.

#### **3-xafta**

Faol amaliyotni boshlash: chet tili va boshqa fanlardan darslar kuzatish va tahlil qilish. Tuzilgan dars rejalarini asosida amaliy darslarni o'tish. Sinf (guruh) rahbarining ma'naviy-ma'rifiy ish rejasi asosida tadbir tashkil etish va tayyorgarlik ko'rish, tadbirlarni o'tkazish, devoriy gazeta, ko'rgazmali qurollar tayyorlash.

#### **4-xafta**

Faol amaliyotni davom ettirish: chet tili va boshqa fanlardan darslar kuzatish va tahlil qilish. Dars rejalarini tuzish va amaliy darslarni o'tishga tayyorgarlik ko'rish va olib borish. Sinf (guruh) rahbarining ma'naviy-ma'rifiy ish rejasi asosida tadbir tashkil etish va o'tkazish, devoriy gazeta, ko'rgazmalar tayyorlash.

#### **5-xafta**

Chet tili va boshqa fanlardan darslar kuzatish va tahlil qilish. Dars rejalarini tuzish va amaliy darslarni olib borish.

Tadbir ishlanmasini tayyorlash, o'tkazish, o'tkazilganligi haqida hujjatlarni rasmiylashtirish.

Ochiq darslarga mavzu tanlash va tayyorgarlik ko'rish

#### **6-xafta**

Chet tili va boshqa fanlardan darslar kuzatish va tahlil qilish.

O'zaro ochiq darslarga o'tkazish, tashrif buyurish, kuzatish, tahlil qilish.

Sinf va guruhlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni davom ettirish: turli mavzular yuzasidan suhbatlar o'tkazish.

#### **7- xafta**

Chet tili va boshqa fanlardan darslar kuzatish va tahlil qilish.

Ochiq darslarga tayyorgarlik ko'rish, tarqatma materiallar tayyorlash va amaliy darslarni o'tish.

Sinf (guruh)larda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni davom ettirish: turli mavzular yuzasidan davra suhbatlari o'tkazish.

Pedagogik amaliyot bo'yicha berilgan topshiriqlar asosida hujjatlarni tartibga solish.O'quv muassasasidagi to'garaklar faoliyati bilan tanishish faol ishtiroy etish

#### **8-xafta**

Chet tili va boshqa fanlardan darslarni kuzatish va tahlil qilish. Dars rejalarini tuzish va amaliy darslarni o'tish.

Mavzu asosidaa ochiq darslarga tayyorgarlik ko'rish, tarqatma materiallar tayyorlash va amaliy darslarni o'tish.

Turli mavzular yuzasidan davra suhbatlari o'tkazish.

#### **9-xafta**

Chet tili va boshqa fanlardan darslar kuzatish va tahlil qilish.

Ochiq darslarga tayyorgarlik ko'rish, tarqatma materiallar tayyorlash va amaliy darslarni o'tish.

Sinf (guruh)larda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni davom ettirish: turli mavzular yuzasidan davra suhbatlari o'tkazish.

Pedagogik amaliyot bo'yicha berilgan topshiriqlar asosida hujjatlarni tartibga solish.O'quv muassasasidagi to'garaklar faoliyati bilan tanishish faol ishtiroy etish

#### **10-xafta**

Chet tili va boshqa fanlardan darslarni kuzatish va tahlil qilish. Dars rejalarini tuzish va amaliy darslarni o'tish.

Mavzu asosidaa ochiq darslarga tayyorgarlik ko'rish, tarqatma materiallar tayyorlash va amaliy darslarni o'tish.

Turli mavzular yuzasidan davra suhbatlari o'tkazish.

Pedagogik amaliyotning hisobot anjumaniga guruh hisobotini tayyorlashda faol ishtiroy etish.

Amaliyot yakunida topshiriladigan hujjatlar bilan ishslash.

Pedagogik amaliyot yakuniga bag'ishlangan anjumanda ishtiroy etish.

## **O‘quv-tarbiya amaliyoti bo‘yicha hujjatlarning tahminiy sxemalari**

### **Uslubchi - rahbar hisobotining tahminiy sxemasi**

- Pedagogik amaliyotni tashkillashtirish (talabalarning sinflar bo‘yicha taqsimlanishi, darslarning rejalashtirilishi kabi);
- Maktabda chet tillarini o‘rgatish sifati. Maktabda uslub o‘rgatish ishi;
- Talabalarning darsda qatnashish soni va sifati, ularning uslubiy darajasi. Talabalarning darslarni muloxaza qilishda faoliyk darajasi, analiz sifati;
- Talabalarning darslari, ularning xususiyati. Talabalarning lingvistik va uslubiy tayyorgarligi xaqlida nima deya olasiz? Darslarda lingvodidaktikaning yangi yutuqlari, shakllar, uslublar va usullar turliliginini ishlatish. Til xodisasini kompleks o‘rganish. Tilni rivojlantirish qanday amalga oshiriladi? O‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish birligi printsipini amalga oshirish. Ko‘rsatmalilikni, TSO va kompyuter texnologiyalarni ishlatish. Uslubiy muammolarga kompleks, ijodiy yondashishni amalga oshirish. Fanga nisbatan o‘rganish qiziqishini tarbiyalash.
- Pedagogik amaliyot rahbari va o‘qituvchilar talabalarga qanday yordam berishgan?
- Maktabning uslubiy birlashish ishida ishtiroti;
- Talabalarning tarbiyalov va tashkiliy ishi (kundalik daftarlarni, daftarlarni tekshirish, sindi rahbariga yordam berish, shanbaliklarda qatnashish, darsdan tashqari faoliyatlarda qatnashish);
- Fan xonasida ishlash (uning bezatilishida, ko‘rsatmali materiallar va didaktik materiallar yaratishda qatnashish);
- Talabalarning professional tayyorgarligi masalalari;
- Bo‘lajak o‘qituvchining professional tayyorgarligini yaxshilash bo‘yicha maslaxatlar;
- Uslubiyat, pedagogika va psixologiya, til kafedralari o‘qituvchilari va dekanat ishchilari tomonidan talabalarning pedagogik amaliyotida qatnashishi

## **Amaliyotchi talaba hisobotining tahminiy sxemasi** **HISOBOT**

\_\_\_\_\_ mактабининг \_\_\_\_\_ факультети \_\_\_\_\_  
гурухи талабаси \_\_\_\_\_ нинг \_\_\_\_\_  
дан \_\_\_\_\_ гача бо‘лган муддатда.

- Pedagogik amaliyot rejasining bajarilishi. Rejadan tashqari qanday siljishlar ro‘y bergen, nima uchun, nima rejadan tashqari bajarilgan, amaliyot xususiyatlari.
- O‘tkazilgan darslar soni. Qaysi darslar ayniqsa samarali o‘tgan, qaysilari qiyinchiliklar tug‘dirgan, nima uchun?
- Amaliyot davomida qaysi didaktik masalalar yechilgan?
- Ish tajribasi qanday ishlataligan va hsoblangan (muammoli o‘qitish unsurlari, ishning o‘rganuvchi uslublari, TSO, zamonaviy pedagogik texnologiyalar). Aniq misollar keltiring. Bu ishdan mammun bo‘ldingizmi, bunda qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?
- Amaliyot davomida qaysi asosiy tarbiyalov masalalari yechilgan? Bu kollektiv bilan tarbiyalov ishlari sistemasiga uni yechish uchun qaysi shakllar kiritilgan?
- O‘quvchilarga individual yondashish amalda qanday amalga oshirilgan?
- Kelajakda qaysi o‘quv-tarbiya masalalarini o‘z oldingizga qo‘ydingiz? Amaliyot jarayonida qaysi bilimlar va qobiliyatlarni o‘zlashtirdingiz?
- Amaliyot xaqida umumiy xulosa. Sizning pedagog bo‘lishingizda uning axamiyati. Sizning amaliyot tarkibi va tashkillanishini rivojlantirish bo‘yicha takliflaringiz.

## Dars analizi tahminiy sxemasi

- Dars mavzusi. Ushbu darsning mavzu bo'yicha umumiy darslar sistemasidagi o'rni.
- Dars maqsadi va uning ta'lif-tarbiya masalalari.
- Darsni tashkillashtirish. O'quvchilarning darqga kelishi va ularning mashg'ulotlarga tayyorgarligi. O'quvchilarni tashkillashtirish (ularning e'tiborini mobillashtirish, ish o'rinnarini tayyorlashga talab va xokazolar). Sinf xonasining darsga tayyorgarligi.
- O'quvchilar bilimlari, ilmlari va qobiliyatlarini tekshirish tarkibi va uslubiyati. Tekshirish uslublari. Frontal va individual so'rov, amaliy masalalar, mustaqil ishlar, differentsiyalashgan xususiyatga ega masalalar tarkibi. O'quvchilarning javoblari sifati, sinfning faolligi. Bilimlarni tekshirish natijalarini aniqlash. O'quvchilar javoblarini baholash.
- Yangi ilmlarni o'rganish tarkibi va uslubiyati. O'qituvchining o'quv materialini og'zaki bayon etishi tarkibi va mavzusi. O'qituvchi tomonidan berilayotgan ilmlar xajmi va sistemasi, bayon etish usullari. Bayon etilayotgan materialning ilmiy yo'naltirilganligi, xayot bilan aloqasi, tarbiyalovchi xususiyati. Bayon etish sistemasi va ketma-ketligi, oldingi o'tilganlar bilan aloqasi. Muammoli masalalarni, o'qituvchi masalalarni o'quvchilar oldiga qo'yish, mantiqiy masalalarni shakllantirish. O'quvchilarning o'quv faoliyatini aktivizatsiyalash, o'quvchilarning aloxida bosqichlarda qiziqishi va e'tiborini saqlab qolish usullari. Yangi materialni o'zlashtirish va tushunib olish ijodiy ishiga o'quvchilarni jalg qilish. Yangi materialni o'rganish, darsliklar ma'lumotnomasi va qo'shimcha adabiyot bilan ishslash jarayonida o'quvchilar mustaqil ishining roli va o'rni. Yangi materialni o'rganish jarayonida o'quvchilarning bilimlarini xisobga olish uslubiyati.
- O'rganilgan materialni mustaxkamlash tarkibi va uslubiyati. Mustaxkamlash uslubiyati. Differentsiyaviy xususiyatga ega masalalar va mustaqil ishlar.
- Uy vazifasi tarkibi. Uy vazifasi hajmi va turlari, uni bajarilishi yuriqnomasi. Aloxida o'quvchilarga qo'shimcha (individual) masalalar.
- O'quvchilarning o'quv faoliyati xususiyati:
- O'qituvchining xarakteristikasi. Materialni bilishi. Uslubiy mahorat. O'qituvchini fan bilan qizikishi. Pedagogik xulq. Nutq (diktsiya, temp, nutq madaniyati, obrazlilik, xissiyotlilik).

### **Pedagogik amaliyot talaba hisobotini bayon etish tartibi**

1. Fakultet, guruh, familiya, ism....ning hisoboti
2. Amaliyotga rahbarlik qilgan metodist familiyasi, ismi
3. Amaliyot o‘tash joyi, umumiy o‘rta ta’lim maktabi, (AL, kasb-hunar kolleji), sinfi,(guruh) haqida ma’lumot.
4. Amaliyot vaqtida bajarilgan o‘quv va tarbiyaviy ishlar haqida ma’lumot:

#### **O‘quv ishlari bo‘yicha:**

- Qaysi o‘qituvchilarning nechta darsini tahlil qildingiz:
  1. ingliz tili o‘qituvchilarini;
  2. boshqa predmet o‘qituvchilarini
- O‘qituvchilar darslarida qanday qiziqarli metod, usul, yo‘llarni, vositalarni qo‘lladilar
- Necha soat, qaysi sinfda, guruhda dars berishdi (hamma mavzulari bilan ko‘rsatish):
- Qanday zamonaviy metod, usul, yo‘l, vositalarni qo‘lladingiz?
- Nutq amaliyoti darsda necha minut davom etdi:
  1. tinglab tushunish bo‘yicha
  2. gapirish bo‘yicha
  3. o‘qish bo‘yicha
  4. yozish bo‘yicha
- Qanday texnik vositalar qo‘lladingiz? Ularni qanday tashkil qildingiz?

#### **Tarbiyaviy ishlar bo‘yicha:**

- Nimalar qildingiz, qanday mavzularda o‘tkazdingiz?
- O‘zlashtira olmayotgan va a’lochi o‘quvchi, talabalar bilan nima ishlar qildingiz?
- Viktorina, KVN, inglizcha kechalar o‘tkazdingizmi?
- Devoriy gazetalar chiqardingizmi?
- O‘quv yurtida qanday xujjatlar o‘rgnadingiz?
- Maktab, o‘quv yurti qanday yig‘ilishlarida qatnashdingiz?
- 5. Amaliyot haqida va maktab, litsey, kasb-xunar kolleji haqida fikr-mulohazalaringiz
- 6. Amaliyot tashkil qilish bo‘yicha fikr mulohazalaringiz

## **Pedagogik amaliyot davomida talabalarining mutaxassislik bo'yicha bilimi, malaka va ko'nikmalarini nazorat mezonlari**

Pedagogik amaliyot davomida universitetda olingen barcha nazariy, amaliy bilimlar va o'qituvchilik kasbi bo'yicha orttirilgan ko'nikmalar bevosita o'quv tarbiya jarayonida sinab ko'rildi. O'quv fanlaridan olingen bilimlar bilan bir qatorda pedagogikadan, tarbiya nazariyasi va amaliyoti, til o'qitish metodikasi bo'yicha bilimlarni amaliyotda qo'llashda ijodiy yondashish darajasi sinab ko'rildi. Pedagogik amaliyot uch bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqichda talabalar maktab o'qituvchilarining darslarini kuzatish orqali tajribali uslubiyotchi-o'qituvchilarining ish tajribalarini tahlil qilishadi va maktab reja-hisobot hujjatlarini o'rganishadi.

Ikkinci bosqichda o'quv fanlari bo'yicha mustaqil dars berishadi.

Uchinchi bosqichda esa maktab faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olgan amaliyotni o'tashadi.

Pedagogik amaliyot davomida talaba faoliyati natijalari baholash mezonlari taqsimoti quyidagicha:

<b>Baholash mezonlari</b>	<p><b>5 – “a'lo”</b> talaba tilda erkin so'zlashganda, biron bir kurs dasturi talablariga ko'ra o'quv-tarbiya ishining butun hajmini yuqori ilmiy-uslubiy darajada va belgilangan vaqtida bajarganda, 30 dan ortiq sinov, 30 dan ortiq o'qituvchi va amaliyotchilarning darslarini analiz qilganda va ular mulohaza qilinganda faol qatnashganda, asosiy tarbiyalov masalasini va o'quvchilararning individual va yoshga doir xususiyatlarini hisobga olgan holda uni yechish yo'llari va natijasini to'g'ri aniqlaganda, ishida mustaqillik, ijodiy yondashish, pedagogik xulqini ko'rsatgan bo'lsa, to'liq va to'g'ri to'ldirilgan hujjatlarni (bajarilgan ish haqida hisobot, analizlar daftari, dasrlar konseptlari, uslubiy xabar hokazolar) taqdim qilganda.</p> <p><b>4 – “yaxshi”</b> talaba chet tilida erkin so'zlashganda, amaliyot vaqtiga belgilangan dasturni vaqtida bajargan bo'lsa, yetarli darajada darslarni o'tkazgan bo'lsa va ularda ishtirok etgan bo'lsa, ta'lif va tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli bajarganda, biroq alohida uslubiy usullarni yetarli darajada samarali ishlatganda, o'quv va didaktik materialni tanlashda mustaqillik ko'rsatganda, mashg'ulotlarni o'tkazishda va tashkillashtirishda ularning analizida kichik xatolarga yo'l qo'yganda, tarbiyalov ishlarda tirishqoqlik ko'rsatganda, bu ishning alohida turlari o'tkazishda ba'zi xatolarga yo'l qo'yganda, hujjatlarni rasmiylashtirishda xatolar bo'lganda.</p> <p><b>3 – “qoniqarli”</b> talaba tilda erkin, lekin kichik orfoepik va aktsentologik xatolar bilan so'zlashganda, o'quv-tarbiya ishi dasturini bajarganda, lekin</p>
-------------------------------	---

	<p>ta'lif va tarbiya masalalarini amalga oshirishda xatolarga yo'l qo'yganda, o'qitish uslublari va yo'llarini yetarli darajada samarali bajarmaganda, o'quvchilarning o'quv faoliyatini bo'sh aktivlashtirganda, har doim xam sinf bilan aloqa o'rnatna olmaganda, tarbiyalov ishda o'z xatolari va kamchiliklarini ko'rmaganda, psixologik-pedagogik bilimlarni ko'rsata olmaganda va ularni ishlata olmaganda, alohida darsdan tashqari mashg'ulotlarni rejalashtirish va o'tkazishda xatolarga yo'l qo'yganda, bolalarning individual va yoshiga doir xususiyatlarni yetarlicha hisobga olmaganda, hujatlarni rasmiylashtirishda jiddiy xatolarga yo'l qo'yganda.</p> <p><b>2 - "qoniqarsiz"</b></p> <p>talaba bo'sh so'zlashganda va shu tufayli o'qilgan narsani aniq va to'lik ifoda eta olmaganda, o'quv-tarbiya ishi dasturini bajara olmaganda, darslarda o'quv va tarbiya masalalarini ishning bir turli uslublari va yo'llarini qo'llagan holda yecha olmaganda, amaliyotchi psixologik pedagogik nazariyaning kuchsiz bilimini ko'rganda, uni tarbiyalash masalalarini amalga oshirish va tadbiq etishda qo'llay olmasligi, hujjatlar pala-partish rasmiylashtirilganda.</p>
--	---

### Talabalar ishlarini nazorat qilish va baholash

Pedagogik amaliyotni tashkil etishning ajralmas qismi, uslubchi raxbar, pedagog-psixolog va talabalar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat, hisobot va baholashdir. O'zini o'zi nazorat qilish va baholash yosh mutaxassislarining professional bo'lib yetishib chiqishida yuqori ahamiyat kasb etadi, bo'lajak o'qituvchilarning o'zini pedagogik anglashini rivojlanishi xususiyatlarni aks ettiradi. Ular talabalar tomonidan o'z o'quv-tarbiya ishi sifatini, uning ijobiliy va salbiy tomonlari, bilim ilm va qobiliyatlar darajasi, shaxsiyatning professional xususiyatlari rivojlanishi, o'z faoliyati maqsad va vazifalarini amalga oshirish darajasi, individual ish rejasiga bajarilishi, o'z faoliyatini uning mukammallashishi maqsadida to'g'rilash kabilarni baholashni nazarda tutadi. Talabalar ishi ustidan nazorat, uni xisoblash-va baholash talabalarning amaliyot davomida faoliyatining sifatiyi va miqdoriy xususiyatini nazarda tutadi.

Miqdoriy xarakteristika bajarilgan ish hajmi asosida pedagogik amaliyot dasturiga (rejasiga) binoan beriladi.

Ko'rsatilgan ish unsurlari qatoriga quyidagilar kiradi: o'qituvchi va amaliyotchilarning darslarga qatnashishi, muloqtlarda ishtirot etishi, o'z sinfiga darslarni tayyorlash va o'tish, nazorat ishlari, o'quvchilarning daftar va kundalik daftarlarni tekshirish va analiz qilish, qo'shimcha mashg'ulotlarni o'tkazish, fan bo'yicha darsdan tashqari faoliyat va tarbiyaviy soatlar.

Pedagogik amaliyotning sifatiy xususiyati talabaning ijtimoiy faolligi darajasi, uning mustaqilligi va o'quv-tarbiya ishiga ijodiy yondashishi, talaba tomonidan amalga oshirilayotgan o'quv-tarbiya ishining samaradorlik darajasi,

uning pedagog kasbiga, bolalarga, maktabga (tirishqoqlik, ma'suliyat, o'zi va o'quvchilarga talabchanlik) munosabati, xisobot xujjatlarining sifati bilan aniqlanadi.

Talabalarning pedagogik amaliyot davomidagi ishining tekshirilishi va xisobi quyidagi talablarga asosan amalga oshiriladi:

- hisob individual bo'lishi kerak, ya'ni har bir talabaning ishi bajarilgan ish hajmi va sifatiga asosan aniqlanishi kerak;
- ishning tekshirilishi va hisobi sistematik ravishda amalga oshiriladi, amaliyotchi ishi ustidan kundalik nazorat asosida amalga oshiriladi;
- talabalar amaliyotini baholayotganda talabalarning individual xususiyatlari va amaliyot o'tayotgan aniq sharoitlar xisobga olinadi.

Har bir talabaning pedagogik amaliyotining baholanishi uning ishini tekshirish va hisobga olish bilan chambarchas bog'lik va katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Amaliyot davomida talabalar ishini tug'ri baxolashning asosiy shartlari: amaliyot rahbarining ob'ektivligi, bajarilgan ish hajmining har tarafliligi va uning sifatinining analizi, talaba ishi sifatini baholashda amaliyot rahbarlari talablarining birligi. Talaba ishini baholashda avvalambor nazariy va amaliy faoliyat darajasini, pedagogik va uslubiy bilimlarni o'zlashtirish, asosiy masalalarini bilish darjasini, pedagogik amaliyotni o'tkazish tarkibi va uslubi, pedagog kasbiga bolalarga va maktabga munosabatini hisobga olmoq zarur.

Har bir talaba ishining umumiy bahosi kompleksdir va uning amaliyot davomidagi faoliyatining barcha taraflarini xisobga oladi.

Qoniqarsiz baho olgan talaba Oliy ta'limga muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomning 28 bandiga muvofiq "Talaba uzrli sabablersiz malakaviy amaliyotga qatnashmagan, shuningdek malakaviy amaliyot yakunlari bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan hollarda, u akademik qarzdor hisoblanadi va kursdan qoldiriladi", qoldirilgan soatlari sababli (sababini ko'rsatuvchi hujjat ilova qilinganda) deb topilgan hollarda farmoyish asosida oliy o'quv yurtidagi mashg'ulotlardan ajralmagan holda maktabda ishini davom ettirishi lozim.

Pedagogik amaliyot uchun yakuniy baho qo'yilayotganda amaliyotchining mактаб uslubiy, ijtimoiy ishida faol qatnashganligi, uning kasbi va bolalarga nisbatan munosabati ham hisobga olinadi. Lekin asosiy baholovchi mezon sifatida ko'rsatilmaydi.

O'zbekiston tizimi	Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS — European Credit Transfer System)	O'zbekiston tizimi
«5» (a'lo)	«A»	90 — 100
«4» (yaxshi)	«B» «C»	70 — 89,9

	«D»	
«3» (qoniqarli)	«E»	60 — 69,9
«2» (qoniqarsiz)	«F»	0 — 59,9

### **Pedagogik amaliyot dasturi uchun adabiyotlar ro‘yxati**

1. Axmedova L.T. Normuratova V.I. Praktikum po metodike prepodavaniya angliyskogo yazika. – T., 2011.
2. Hoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – T., 2003.
3. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: Chet tillar oliv o‘quv yurtlari talabalari (fakultetlari) uchun darslik. –T: O‘qituvchi, 2012.

### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. Azizzodjaeva A.K. Pedagogicheskaya texnologiya. – T., 2002.
2. Galskova N.D. Sovremennaya metodika obucheniya inostrannim yazikam. – M., 2007.
3. Rogova G.V. va boshqalar. Metodika obucheniya inostrannomu yaziku v sredney shkole. – M., 1991.

